

SHAHAR SHAROITIDA JANGAVOR HARAKATLAR OLIB BORISH TAKTIKASI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tinglovchisi

Olimjonov Muhridin Nizomiddin o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish taktikasi, uning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy harbiy amaliyotdagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada shahar muhitining o'ziga xos jihatlari — ko'p qatlamli tuzilishi, aholi mavjudligi, yer usti va yer osti infratuzilmalarining murakkabligi, hamda qurolli to'qnashuvlarda axborot va texnologik ustunlikning o'zni keng yoritilgan. Shuningdek, dronlar, intellektual sensorlar, robototexnika va tarmoqli (network-centric) urush konsepsiyalari asosida rivojlanayotgan yangi taktik yondashuvlar tahlil etilgan. Ilmiy tahlil va amaliyot misollari orqali shahar sharoitida urush olib borishdagi dolzarb muammolar va yechim yo'llari ko'rsatib berilgan. Maqola harbiy sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar, tadqiqotchilar va strategik rejalashtirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Аннотация: В данной статье проанализирована тактика ведения боевых действий в условиях городской среды, этапы её развития и особенности в современных военных операциях. В статье подробно освещены характерные черты городской среды — многоуровневая структура, наличие гражданского населения, сложность наземной и подземной инфраструктуры, а также роль информационного и технологического превосходства в вооружённых столкновениях. Кроме того, рассмотрены новые тактические подходы, развивающиеся на основе использования дронов, интеллектуальных сенсоров, робототехники и концепции сетево-центрической войны. На основе научного анализа и практических примеров показаны актуальные проблемы ведения боевых действий в городе и возможные пути их решения. Статья представляет как практический, так и теоретический интерес для специалистов, работающих в военной сфере, исследователей и экспертов, занимающихся стратегическим планированием.

Annotation: This article analyzes the tactics of conducting combat operations in urban environments, the stages of their development, and their characteristics in modern military operations. The article highlights the distinctive features of the urban environment — its multi-layered structure, the presence of civilian populations, the complexity of surface and underground infrastructure, as well as the role of informational and technological superiority in armed conflicts. Additionally, new tactical approaches are examined, which are evolving through the use of drones, intelligent sensors, robotics, and the concept of network-centric warfare. Through scientific analysis and practical examples, the article identifies current challenges of urban warfare and possible solutions. The article holds both practical and theoretical value for military professionals, researchers, and experts engaged in strategic planning.

Kalit soʻzlar: shahar sharoitdagi janglar, jangovar harakatlar, harbiy taktika, shaxar muhiti, modulli strategiya, dronlar, axborot urushi, yerosti tunnellar, robot texnika, tarmoqli urush, asimmetrik jang, aholi xavfsizligi, zamonaviy urush texnologiyalari, manyovr, razvedka.

KIRISH

Shahar sharoitida olib boriladigan jangovar harakatlar milliy va xalqaro harbiy tajribada jadal rivojlanayotgan yoʻnalishdir. Shahar janglari — mintaqaviy, geosiyosiy va ijtimoiy jihatdan muhim boʻlib, qurolli ziddiyatlarda strategiya va taktikadan tashqari, inson kapitali, axborot muhiti va boshqa omillar katta roʻl oʻynaydi. Shahar janglari jangovar hodisalarning eng murakkab shakllaridan biri boʻlib, ularda maxsus bilim, jadal qaror qabul qilish qobiliyati va yangi texnologiyalarni joriy etish zarurligi ortmoqda.

Shahar muhitida jangovar harakatlar olib borish — zamonaviy harbiy strategiya va taktikaning eng murakkab, masʼuliyatli va oʻzgaruvchan sohalaridan biridir. Bu yoʻnalish nafaqat qurolli toʻqnashuvlarni amalga oshirish, balki harbiy kuchlarning shaxar infratuzilmasi, aholi va axborot muhiti bilan bogʻliq murakkab oʻzaro taʼsirini ham qamrab oladi.

XXI asrdagi harbiy ziddiyatlar tahlili shahar janglari koʻp hollarda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatmoqda. Bunday vaziyatlar Afgʻoniston, Iroq, Suriya,

Ukraina va Falastin kabi hududlarda yuz bergan. Shaharlarda olib borilgan operatsiyalar ko'p jihatdan urush natijasini belgilab bergan, bu esa harbiylardan taktik harakatlar qayta ko'rib chiqishni va maxsus bilimlarni talab qilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida *“Dunyoda ro'y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to'qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo'llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda”* deb takidlaganlar¹.

Bundan tashqari, tadqiqotchilar John Spencer² shahar janglaridagi murakkabliklarni ko'p qavatli binolar, tor ko'chalar va yer osti inshootlari bilan izohlagan bo'lsa, Williams va Cheng³ shahar urushlarining kelajagini global urbanizatsiya jarayoni va infratuzilmaning tobora murakkablashuvi bilan bog'laydi. Bizning fikrimizcha, bu qarashlar bir-birini to'ldiradi, ammo ularni faqat texnik va arxitektura nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas, chunki shahar muhitida inson omili va axborot-psixologik qarshilik ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Betz va Stanford-Tuck⁴ shaharni “neytral makon” sifatida talqin etib, u har ikki tomon uchun ham teng darajada qiyinchilik tug'dirishini ta'kidlaydi. Bizningcha, bu yondashuv nazariy jihatdan qiziqarli bo'lsa-da, amaliyotda shahar neytral emas, balki faol ijtimoiy va madaniy makon bo'lib, undagi aholining xulq-atvori, psixologik kayfiyati va qo'llab-quvvatlash darajasi jangovar natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, shahar jangovar harakatlarida faqatgina texnik va arxitektura omillari emas, balki inson omili, aholi xulq-atvori hamda axborot-psixologik qarshilik hal

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/5821>.

² Spencer J. Understanding Urban Warfare. – London: Bloomsbury Academic, 2022. – 256 p.

³ Williams M., Cheng M. The Future of Urban Warfare // Irregular Warfare Initiative. – 2021. – [Online] Available at: <https://irregularwarfare.org/articles/the-future-of-urban-warfare>.

⁴ Betz D., Stanford-Tuck H. The City Is Neutral: On Urban Warfare in the 21st Century // Texas National Security Review. – 2019. – Vol. 3(2). – P. 100–115.

qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois shaharni “neytral makon” sifatida talqin etish to‘liq asosli emas, chunki u faol ijtimoiy va madaniy muhit bo‘lib, uning ta’siri jangovar natijalarni tubdan belgilab beradi.

John Spencer va Liam Collinsning *Understanding Urban Warfare* asarida shahar sharoitidagi jangovar harakatlarning murakkabligi alohida ta’kidlanadi. Mualliflarning fikricha, shahar muhiti oddiy dala jang maydonidan tubdan farq qiladi, chunki u 3D xususiyatga ega bo‘lib, ko‘p qavatli binolar, tor ko‘chalar va yer osti inshootlari harakatlarni murakkablashtiradi⁵.

Shuningdek, Spencer o‘zining “The City Is Not Neutral” nomli maqolasida shaharning “neytral makon” emasligini asoslaydi. Unga ko‘ra, shahar muhitidagi aholi zichligi, ijtimoiy-madaniy xususiyatlar va infratuzilma xususiyatlari bir tomon uchun afzallik, boshqa tomon uchun esa jiddiy cheklovlar yaratishi mumkin. Bu jihat bizning qarashlarimiz bilan hamohang bo‘lib, shahar muhitida inson omilining hal qiluvchi o‘rin egallashini ko‘rsatadi⁶.

Amaliy misol sifatida Spencer tomonidan tahlil qilingan Shusha jangi ham shahar muhitda jangovar harakatlarning qanday murakkab sharoitda kechishini yaqqol namoyon etadi. Uning fikricha, bu kabi janglarda muvaffaqiyatni ta’minlash uchun nafaqat texnik va harbiy omillar, balki ijtimoiy va psixologik jihatlar ham inobatga olinishi shart.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Stalingrad janglari urban taktikani shakllantirishda poydevor vazifasini o‘tdi: shahar sharoitida muvaffaqiyatni ta’minlash uchun kichik, mobil va o‘zaro muvofiqlashtirilgan shturmovo‘y guruhlar (hujumchilar, mustahkamlovchi bo‘linmalar va rezerv) tashkil etilishi zarurligi aniqlandi; bunday guruhlarining asosiy tamoyillari — qisqa vaqt ichida ob’ektni egallash va kutilmaganlikni saqlash, oldindan puxta o‘rganilgan reja va qat’iy funktsiyalar taqsimoti — amaliy jihatdan samarali ekanligi isbotlandi. Shuningdek, ko‘cha-janglarda granata, pulemyot, snayper va sapyorlar kabi vositalar bilan birga qo‘l jangi vositalaridan foydalanish, bino ichidagi va yer osti yo‘laklaridan keluvchi xavflarni hisobga olgan mobil taktika hamda shahar

⁵ Collins, L., Spencer, J. *Urban Warfare Project: Case Studies (Sadr City, Shusha va boshqalar)* // Modern War Institute at West Point. – 2020–2022. – URL: <https://mwi.westpoint.edu>.

⁶ Spencer, J., Collins, L. *Understanding Urban Warfare*. London: Casemate Publishers, 2022. – 296 b.

infratuzilmasining murakkabligiga moslashuvchi taktik pardoqlar (tutun, tungi harakatlar, artilleriya bilan sinxronizatsiya) kabi usullar muhim ahamiyat kasb etdi.

Bundan kelib chiqib, Stalingrad tajribasi zamonaviy urban taktika uchun ikki muhim xulosani beradi: birinchidan, katta tarkibdagi harakatlarni shahar muhiti sharoitida qo‘llash chegaralangan — shuning uchun taktika “blok-by-blok”, kichik guruhlar asosida amalga oshirilishi lozim; ikkinchidan, operativ muvaffaqiyat faqat qurolli kuchlar texnik vositalari bilan emas, balki maxfiylik, puxta razvedka, aloqani saqlash va aholi bilan muvofiqlashtirilgan ishlar (civil-military interaction) bilan ham belgilanadi. Shu sababli zamonaviy shahar taktikalarini ishlab chiqishda amaliy 3-o‘lchovli (3D) fikrlash, tezkor small-unit taktikasi va fuqarolik infratuzilmasini himoya qilish printsiplari integratsiyalashgan tarzda majburiy hisoblanadi⁷.

Shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish taktikasini rivojlanishda quyidagilar taklif qilinadi:

- Shahar muhitida jangovar harakatlar bo‘yicha maxsus taktik konsepsiya ishlab chiqish lozim. Unda modulli tuzilmalar, vertikal va gorizontal manyovrlar, yer osti va yer usti operatsiyalar uyg‘unligi hisobga olinsin.

- Harbiy kadrlar tayyorgarligida urban muhitga ixtisoslashgan kurslar tashkil etilishi zarur. Bunda simulyatorlar, AR/VR texnologiyalari, shahar maketlari va real ssenariylar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazish taklif etiladi.

- Axborot urushi va media bilan ishlash bo‘yicha maxsus bo‘limlar harbiy bo‘linmalar tarkibiga kiritilishi kerak. Chunki shahar muhitidagi urushlar axborot va psixologik ta’sir bilan ham olib boriladi.

- Dronlar va intellektual razvedka vositalarini integratsiya qilish bo‘yicha taktik qo‘llanmalar va boshqaruv tizimlari yaratilishi kerak. ISR (Intelligence, Surveillance, Reconnaissance) platformalari shahar muhitida tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.

- Xalqaro gumanitar huquq me’yorlariga mos harakat etish bo‘yicha protokollar ishlab chiqish talab etiladi. Ayniqsa, tinch aholi mavjudligida jangovar harakatlarning chegarasi aniq belgilab qo‘yilishi lozim.

- Evakuatsiya, gumanitar koridorlar va infratuzilmani himoya qilish bo'yicha rejalar harbiy amaliyotga integratsiya qilinishi kerak. Bu aholi xavfsizligini ta'minlash va xalqaro noroziliklarning oldini olishda muhimdir.

- O'rganilgan tarixiy janglar asosida taktik-amaliy o'quv qo'llanmalar yaratish lozim. Masalan, Groznyy va Mosul janglari tahlil qilinib, ulardan amaliy saboqlar chiqarilishi kerak.

- Ta'lim muassasalarida (Harbiy akademiya, Mudofaa universiteti) shahar sharoitida urush olib borish strategiyasiga oid mustaqil fan kurslari tashkil etish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish taktikasi zamonaviy harbiy amaliyotda eng muhim va murakkab yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shaxar muhitning tuzilishi — ko'p qavatli binolar, tor ko'chalar, yer osti infratuzilmalari va aholining to'g'ridan-to'g'ri jang maydonida mavjudligi — an'anaviy jangovar taktikalar samaradorligini pasaytiradi va mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etadi.

Harbiy tarix tahlili shunga dalolat qiladiki, shahar janglari (masalan, Stalingrad, Groznyy, Mosul, Mariupol) har doim katta yo'qotishlarga, uzoqqa cho'zilgan to'qnashuvlarga va siyosiy oqibatlariga olib kelgan. Shu bois, bunday muhitda olib boriladigan jangovar harakatlar yuqori darajadagi rejalashtirish, texnologiyalardan samarali foydalanish, aniq axborot va gumanitar me'yorlarga rioya qilishni talab qiladi.

Shu bilan birga, yangi asimmetrik tahdidlar, gibril urushlar, axborot urushi va yuqori texnologiyali qurollar (dronlar, sensorlar, robotlar) urban jangovar taktikalarning tez sur'atda rivojlanishiga turtki bermoqda. Bugungi kunda shaxsiy tayyorgarlik, modulli va dinamik guruh harakati, axborot ustunligi va yuqori aniqlikka ega qurollardan foydalanish shahar muhitdagi harbiy operatsiyalarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. <https://president.uz/uz/lists/view/5821>.

¹ Spencer J. Understanding Urban Warfare. – London: Bloomsbury Academic, 2022. – 256 p.

¹ Williams M., Cheng M. The Future of Urban Warfare // Irregular Warfare Initiative. – 2021. – [Online] Available at: <https://irregularwarfare.org/articles/the-future-of-urban-warfare>.

¹ Betz D., Stanford-Tuck H. The City Is Neutral: On Urban Warfare in the 21st Century // Texas National Security Review. – 2019. – Vol. 3(2). – P. 100–115.

¹ Collins, L., Spencer, J. Urban Warfare Project: Case Studies (Sadr City, Shusha va boshqalar) // Modern War Institute at West Point. – 2020–2022. – URL: <https://mwi.westpoint.edu>.

¹ Spencer, J., Collins, L. Understanding Urban Warfare. London: Casemate Publishers, 2022. – 296 b.

¹ Trut V.P. Osobennosti boevykh deystviy v usloviyax goroda na primere Stalingradskoy bitvy // Voenno-istoricheskiy jurnal. – 2018. – №11. – S. 35–41.